

Nargiza MUHAMEDOVA,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti, Harbiy va sport kafedrası o'qituvchisi

E-mail: nargizasherzodovna@gmail.com

Alisher ALIMOV,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti, Harbiy va sport kafedrası o'qituvchisi

E-mail: a.alimov@yahoo.com

UzJOKU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Alijon Safarov taqrizi ososida

SPORT VA IQTISOD: BOG'LIQLIK VA UMUMIYLIK

Annotasiya

Keyingi yillarda aholini sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabati keskin o'zgardi. Ommaviy sportdan professional sportga tomon qadam bosish orqali salohiyatli sportchilar soni ortib bormoqda. Bu jarayondagi munosabatlarda esa o'z o'zidan sportning iqtisodiy soha bilan ko'p bora to'qnash kelayotgani va unda iqtisodiyotning ko'plab qonuniyatlari aks etayotgani ko'zga tashlanib qolmoqda. Mazkur maqolada sportning iqtisodiyot bilan bog'liq umumiy va o'xshash jihatlari haqida fikr yuritiladi va istiqbolda o'rganilishi, tadqiq etilishi zarur bo'lgan jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Sport, iqtisodiyot, jismoniy tarbiya, raqobat, natija, musoboqa, salohiyat

SPORTS AND ECONOMICS: DEPENDENCE AND COMMUNITY

Annotation

In subsequent years, the attitude of the population towards a healthy lifestyle has changed dramatically. By stepping from mass sports to professional sports, the number of potential athletes is growing. And in the relationship in this process, it is noticeable that sports in itself are facing a lot with the economic sphere, and many laws of the economy are reflected in it. This article reflects on the general and similar aspects of sports related to the economy and reflects on the aspects that need to be studied and studied in the future.

Key words: Sport, economics, physical education, competition, result, competition, potential

СПОРТ И ЭКОНОМИКА: ЗАВИСИМОСТЬ И ОБЩНОСТЬ

Аннотация

За последние годы отношение населения к здоровому образу жизни кардинально изменилось. Переходя от массового спорта к профессиональному, растет число потенциальных спортсменов. И во взаимосвязи в этом процессе заметно, что спорт сам по себе во многом сталкивается с экономической сферой, и в нем отражаются многие законы экономики. В этой статье рассматриваются общие и схожие аспекты спорта, связанные с экономикой, а также те аспекты, которые необходимо изучить в будущем.

Ключевые слова: Спорт, экономика, физическое воспитание, конкуренция, результат, конкуренция, потенциал.

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport insonlarning umr ko'rish davomiyligini hamda mehnatga layoqatli yoshini uzaytirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport moddiy bo'lmagan ishlab chiqarishning barcha unsurlari bilan tavsiflanadi, ya'ni, ishlab chiqarilgan mahsulot moddiy shakl va ob'ektiv timsolga ega emas. Jismoniy madaniyat va sport sanoati sog'lik, uzoq umr, o'yin-kulgu va qiziqarli dam olish kabi mahsulotlar ishlab chiqaradi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari, dastlabki investitsiyalar sarmoyasi sport kadrlarining ko'payishiga olib keladi.

Natijada bu jismoniy tarbiya va sportning salohiyatini oshirib boradi. Jismoniy tarbiya va sport sanoatining o'z iste'molchilari va ishlab chiqaruvchilari, o'z bozori va bozordan tashqari institutlari, o'z sanoati bor, ular milliy va xalqaro iqtisodiyotga uyg'un tarzda birlashtirilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport tananing tabiiy himoyasini kuchaytirishga, ko'plab kasalliklarga chidamliligini oshirishga, barkamol jismoniy rivojlanishni ta'minlashga yordam beradi. Shunday qilib, muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish natijasida iqtisodiy tizimda kasallik tufayli ishdan bo'shshlarning umumiy soni kamayadi, bu shubhasiz YaIM o'sishiga va jamiyat farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi[1]. Shu nuftai nazarda olib qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6099-son Farmonining maqsadi, mazmun-mohiyati ham aynan yuqorida qayd etilgan natijalarga erishishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, Farmonda vazirlik va idoralarda, korxonada va tashkilotlarda ishchi-xodimlarning bo'sh vaqtlarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o'rtasida muntazam ravishda sport-sog'lomlashtirish tadbirlari va musobaqalarini o'tkazib turish belgilangan. Maqsad esa, yuqorida ta'kidlanganidek, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarga chalinish holatlarini, shu orqali kasallik varaqalari uchun to'lanadigan mablag'larni kamaytirish, xodimlarning ish unumdorligini oshirish kabilardan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlil. Tadqiqotchi M.Amara Afrika dunyosida kechayotgan sport jarayonlarini kuzatar ekan, sport yo'nalishiga ixtisoslashgan telekanal faoliyatining rivojlanishi bevosita o'sha mamlakatdagi sport sohasining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq degan fikrni ilgari suradi[8]. Shu bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda xususiy sektorlar ko'payib borgan sari, sportga ixtisoslashgan xususiy telekanallar sonining ham ortishi bu soha rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini bayon qiladi. Ivan Kovachevich Xorvatiya telekanali rivojlanish tendensiyalari mavzusida fikr yuritir ekan, sportning jonli jarayonini ommaga yetkazishda multimediya imkoniyatlaridan ko'proq foydalanish zarurligini aytadi[9]. Hammamizga ma'lumki, zamonaviy dunyoda internet aholining barcha yosh qatlamini qamrab olgan. Va aynan sport internet kanallari telekanaldan ham tezroq jarayonni yetkaza olish imkoniyatiga ega ekanini ta'kidlaydi. Buning uchun Xorvatiyada birinchi galda sport kontentini uzatishning multimediya imkoniyatlari taxlil qilinadi. Bu jarayonning iqtisodiy tomonlari ham xisobga olinib o'rganib chiqiladi. Ikkinchidan, xuddi shu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan internet kanallari bilan

solishtiriladi va ularning auditoriyaning umumiy salohiyati o'sishiga ta'siri va o'rganib chiqiladi. Uchinchidan, so'rovnomaga o'tkazish asosida internet orqali kontent kuzatib borishni odat qilgan auditoriya salmog'i o'rganib chiqiladi. Va nihoyat aynan shu taxlillar xulosasiga ko'ra sport musobaqalarining yoritilishi Xorvatiya internet yoki telekanallarida doimiy ravishda efirga uzatib boriladi.

Brett Xatchins keyingi vaqtlarda butun dunyoda OTT platformasi orqali sport musobaqalari translyatsiyalarining namoyish etilishi me'yordan ham yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganini yozar ekan, bu jarayonda mualliflik xuquqi normalariga amal qilinishi lozimligini alohida ta'kidlaydi[10]. Shu bilan bir qatorda sport musobaqalarini turli manbalarda yoritishda xuquqiy normalarga qat'iy amal qilinishi taxlil qilinadi. Devid Rou Avstraliya televideniyesi va radiosi faoliyati misolida sport musobaqalarining to'g'ridan to'g'ri efirga uzatilishi tomoshabinga "jonli" jarayonni xis etish va o'sha musobaqada bevosita ishtirok etishdek taassurotini bera olganini aytadi. Aynan Avstraliya telekanalida sport jarayonlarini kuzatib borishga 1956 yilda Melbrunda o'tgan Olimpiada sabab bo'lgani asos deb xisoblanadi[11]. Shu bilan bir qatorda sportning efirga uzatilishidagi rivojlanish bosqichi kameraning takomillashuvi bilan bog'lanadi. Aytib o'tish kerki, deydi Devid Rou, sportga oid xar qanday kontentning qiziqarliligi va ta'siri istalgan tadbirkor uchun reklama berishda ko'b qismli auditoriya qamroviga erisha olishini ta'minlaydi. Shu qatorda mashhur brendlarning ommalashuviga ham sport auditoriasining katta qismi salohiyati sabab bo'lishi amalda isbotlangan. Va umuman, televizion sport ko'rsatuvlari hamisha tomoshabinning yuqori kayfiyatini ta'minlashiga sabab bo'lishi ta'kidlanadi.

Iqtisodiy nazariyadan ma'lum bo'lganidek, istalgan mamlakat fuqarolarining farovonligini barqaror iqtisodiy o'sish orqali ta'minlash mumkin. Mamlakatning iqtisodiy barqaror o'sishini ta'minlash uchun esa hukumat ikkita asosiy yo'lni tanlashi mumkin – yoki ko'proq ishlab chiqarish omillari – ishchi kuchi, yer va sarmoya kiritish orqali maqsadga erishish, yoki ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishda qo'llash orqali eng yangi ilmiy yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etish yo'li bilan shuningdek, sifatli ishchi kuchi evaziga mehnat unumdorligini oshirish bilan jadal o'sishga erishish mumkin.

So'nggi yillarda aksariyat mamlakatlar aholisida sport mashg'ulotlari bilan faol shug'ullanishga qiziqish ortishi bilan birga, sportning deyarli barcha turlariga muxlislik qilish borasidagi qiziqish ham sezilarli darajada oshirib bormoqda.

Uzoq vaqt davomida G'arbda ham sport va iqtisod ikkita mustaqil soha sifatida ko'rilgan. Sportga – sevimli mashg'ulot, bo'sh vaqtni maroqli o'tkazish vositasi, deb qaralgan va bu sohaning iqtisodiyotga, savdo-sotiqqa hech qanday aloqasi yo'q, deb hisoblangan. Bugungi kunga kelib esa qarashlar tubdan o'zgardi. Ayniqsa, keyingi vaqtlarda sportda, katta raqobat sharoitida, katta pul topish imkoni paydo bo'ldi.

O'z mohiyatiga ko'ra, biznes sportga juda o'xshaydi: tadbirkorlik faoliyatining asosini ham raqobat tashkil etadi, shaxslar va jamoalarning raqobati hamisha qizg'in jarayonlarga sabab bo'ladi. Sportda ham, biznesda ham motivatsiya mavjud. Bu raqobatchilarning ma'lum bozorda g'alaba qozonish, o'zlariga va boshqalarga ichki imkoniyatlarini va salohiyatlarini isbotlash, atrofdegilarning hurmatini qozonish istagi bilan bog'liq jarayonlardan iboratdir[4]. Shunday qilib, sport va biznes bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekan, bu jarayonda motivatsiyaa sosiy harakatlantiruvchi kuchga vazifasini bajaradi.

Sportda nafaqat professional sportchilar va murabbiylar, balki professional iqtisodchilar, menejerlar, huquqshunolar, sotsiologlar xizmati ham ahamiyatli bo'lib bormoqda. Bu sportning barcha yo'nalishlariga tegishlidir. Deylik, bu jihat muxlislar auditoriyasida, professional sportchilar bilan bog'liq turli vaziyatlarda, sport uyushmalari va klublari faoliyatida, tijorat takliflari yoki katta nufuzli musobaqalar tashkil etish va o'tkazish jarayonlarida ko'zga ko'rinib bormoqda.

Sport o'zining ko'p ko'rinishlarida iqtisodiy va boshqaruv tomondan aniq tasniflanganligi sababli, sportda ko'plab iqtisodiy va boshqaruv nazariyalari qo'llaniladi.

Mahsulot sifatida sportning tijorat taklifiga kelsak, quyidagi jadallik bilan rivojlanayotgan sport bozorlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

Turli xil sog'liqni saqlash, raqs, gimnastika studiyalari va sport maktablari tomonidan namoyish etiladigan, foyda keltiradigan sport sotuvchilari bozori;

Sport turizmi uchun tovarlar bozori, ya'ni tegishli infratuzilma (tog' chang'isi, golf maydonlari) mavjud bo'lganda texnik qurilmalar va ulardan foyda ko'rayotgan turizm;

Sport anjomlari, jihozlari, kiyim-kechak sotuvchilari uchun bozor. Bu bozor, ayniqsa keyingi yillarda tez suratlarda rivojlanib bormoqda, sababi sport uslubidagi kiyinish zamonaviy hayotning tarkibiy qismiga aylanib ulgurd.

Klublar, federatsiyalar, Olimpiya qo'mitasi tomonidan tijorat maqsadida o'tkaziladigan sport tadbirlari bozori (Olimpiya o'yinlari, chempionatlar, xotira turnirlari va boshqalar);

Sport homiyligi va reklama bozori.

Tadqiqot natijalari va uning muxokamasi. Shunday qilib, iqtisodiyot qanchalik rivojlansa, bozor qonuniyatlari sportga shunchalik tez kirib boradi va shu bilan birga tovar sifatida sportga bo'lgan taklif ham oshadi va bu sport iqtisodining asosiy mazmunini belgilaydi[2].

Sport iqtisodiyotini sportning iqtisodiy shuningdek, har qanday sport tashkilotlari o'z faoliyatlarida to'qnash keladigan sotsiologik, psixologik, huquqiy jihatlarini o'rganadigan fan sifatida talqin qilish mumkin. Sog'lom turmush tarzi va stadionlarda futbol tomosha qilish odatiy hayot tarziga aylangan va bunday bo'lmagan mamlakatlar sport bozorlarida sport musobaqalarida qatnashish dinamikasi sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Mamlakatdagi iqtisodiy omillar sportdagi muvaffaqiyatlarga ta'sir o'tkazmay qolmaydi, albatta. Ulardan eng muhimlari aholi daromadlari, sanoatda band bo'lgan aholi ulushi va urbanizatsiya darajasidir. Bu omillarning barchasi bir-biridan alohida emas, balki mamlakatdagi mavjud iqtisodiy tartib va siyosiy tizim bilan chambarchas bog'liqdir. Binobarin, mamlakatda ichki barqarorlik qanchalik yuqori, siyosiy tizim qanchalik sokin va barqaror bo'lsa, sportda shuncha katta yutuqlarni bashorat qilish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, sport bilan shug'ullanish vaqt va pul talab qiladi. Biror mashg'ulot turini boshlashda sport inshootlari joylashgan joyga kelish, sport kiyimlari, anjomlari, asbob-uskunalar va boshqalarni xarid qilish hamda ulardan samarali foydalanish uchun vaqt va mablag' kerak.

Bu jarayonni yanada kengroq ko'z oldimizga keltirsak, sport anjomlari va kiyim-kechaklarini sotib olish, sport inshootlari va mashg'ulot anjomlaridan foydalanish, sport tadbirlari uchun chiptalar sotib olish, yashash yoki ish joyidan sport inshootlariga borish bilan bog'liq xarajatlar mavjud. Shunday qilib, sport bilan shug'ullanayotganda quyidagi cheklavlar doimo inson qarshisida mavjud bo'ladi: xarajatlarni cheklash; vaqt chegaralari. Shu bilan birga, birinchisi shaxsiy byudjetning boshqa xarajatlari bilan, vaqt esa undan foydalanishning boshqa imkoniyatlari bilan raqobatlashadi.

Ushbu cheklavlarni quyidagi omillar belgilaydi[3]:

taklif etilayotgan sport tovarlari va xizmatlarining narxi;
sport tovarlari va xizmatlarining turi, sifati, texnologiyasi, joylashuvi;
mavjud sport imkoniyatlari haqida ma'lumotning mavjudligi;
sizing ixtiyoringizdagi bo'sh vaqt miqdori;
daromadingiz va mavjud mol-mulkingiz miqdori.

Xulosa va takliflar. Sport bilan shug'ullanadigan odamlar sport faoliyatida ma'lum maqsad va manfaatlarga intiladi. Shundan kelib chiqib, yuqoridagi omillarni o'rgangan holda o'zi uchun eng maqbulini tanlashga harakat qiladi.

Insonlar sportda foydalanadigan tovarlar va xizmatlarni o'z maqsad va umidlarini ro'yobga chiqarish qarori bilan sotib olishadi. Bu o'zaro ta'sir zanjiri quyidagilarda yaqqol ko'rinib turibdi: iste'molchi sport poyafzali, kiyim-kechak, inventar, kirish chiptalari, aviachiptalar va boshqalarni sotib olsa-da, aslida bu xaridlardan maqsad ularga to'g'ridan-to'g'ri egalik qilish emas; ehtimol, u ular bilan faqat o'z potensialini sotib oladi, uning yordamida u o'z maqsadlari, istaklari, ambitsiyalari va tajribasini amalga oshirishga harakat qiladi. Buning uchun esa u yana qo'shimchasiga o'z vaqtini, kuchini, irodasini sarf etadi.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy faollik, sport va sayyohlik to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy foyda bilan birqatorda, moddiy bo'lmagan boshqa foyda ham keltiradi. Bu yerda biz, birinchi navbatda, atletlarning musobaqalarda, madaniy, kognitiv va ma'rifiy dasturlarda ishtirok etish jarayonida o'z maqsadlarini amalga oshirish va sport salohiyatlarini kengaytirish kabi omillarni nazarda tutamiz.

Odamlar sport bilan bo'sh vaqtlarini yanada oqilona va konstruktiv o'tkazadilar; jismoniy madaniyat va sport har bir kishiga o'zini namoyon qilish, takomillashtirish va o'z imkoniyatlarini isbot etish uchun ulkan sharoit yaratadi. Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport jamiyat farovonligining o'sishi va odamlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Галкин В. В. Экономика спорта и спортивный бизнес. — М., 2006 – 321б.
2. Литвин А.Б. Особенности маркетинга взаимоотношений в спорте// Маркетинг в России и за рубежом. — 2001. — № 1. — Б.65–71.
3. Розенберг Г. С. Рынок труда профессиональных игроков в бейсбол. —1956.
4. Полинин М. Экономика спорта: что произойдет до 2013 года? Электронный ресурс. Режим доступа: <http://www.коммерсант.ру/доc/1498760>
5. SAFAROV, A. I. (2020). EXPRESSION OF THE PURPOSE OF THE AUTHORITARIAN REGIME IN MILITARY PUBLICATIONS (on the example of military publications during the Soviet era in Uzbekistan). *Inostrannie yaziki v Uzbekistane*, (1), 156-171.
6. Safarov, A. Kitobxonlik targ'iboti konvergent maqola vositasida. Infolib: informatsionno-bibliotekniy vestnik Uchrediteli: Obshchestvo s ogranichennoy otvetstvennostyu s uchastiem inostrannogo kapitala "E-LINE PRESS", (4), 57-59.
7. Мансуров Д., Сафаров А. Этапы развития и новый образ политических партий в Узбекистане //Американский журнал междисциплинарных исследований и разработок. – 2023. – Т. 15. – С. 155-161.
8. Sport in the African World J Nauright, M Amara - 2018 - books.google.com
9. Ivan Kovačević (Hrvatski Telekom d.d., Croatia), Mirjana Pejić Bach (University of Zagreb, Croatia) and Božidar Jaković (University of Zagreb, Croatia)
10. Brett Hutchins, Bo Li, David Rowe First Published August 20, 2019 Research
11. David Rowe BookThe Australian TV Book